
Tibbiy xizmat sifati oshmoqda

Mamlakatimizda aholiga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar sifatini tubdan oshirishga, sog'liqni saqlash davlat tizimining kadrlar salohiyatini mustahkamlashga, tibbiyot muassasalarining resurslar salohiyatini yaxshilashga qaratilgan sog'liqni saqlashni isloh qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Qo'shtepa tumanida ham tibbiyot muassasalari faoliyatini takomillashtirish, ularni zamonaviy tibbiy jihoz, uskunar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, Ko'p tarmoqli markaziy poliklinikaga tuman hokimining farmoyishiga asosan tuman aholisiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish maqsadida zarur tibbiy jihozlar, texnika vositalari, 2019-2020-yil kuz-qish mavsumini betalofat o'tkazish uchun isitish tizimi hamda markazlashgan kislorod markazi qurish va boshqa asosiy vositalar sotib olish uchun jami 550 mln. so'm mablag' ajratildi.

Kuni kecha ushbu markazga "Damas" rusumli avtomashina sotib olindi hamda aholiga sifatli tibbiy yordam ko'rsatish uchun tuman hokimi I.Novikov tomonidan mashina kaliti tantanali ravishda topshirildi.







Jumladan, markaziy shifoxonaning tugʻruq boʻlimi uchun operatsion stol sotib olinib, foydalanishga topshirildi.



Ko'p tarmoqli markaziy poliklinika qoshidagi ayollar maslahat xonasi uchun zamonaviy kompyuter, tuman tibbiyot birlashmasining ichki dorixonasiga dori tayyorlab berish uchun akvadistilyator, tibbiyot birlashmasiga qarashli markaziy shifoxona va Langar shifoxonasidagi jonlantirish bo'limlaridagi kislorod balonlarini bino tashqarisiga alohida belgilangan joyga o'rnatish va kislorod ta'minoti sistemasini markazlashtirilgan holda o'tkazish orqali yetkazib berishni ta'minlash uchun "ZAMON MED SERVIS" xususiy korxonasi bilan shartnoma tuzildi. Tibbiyot birlashmasiga qarashli tez tibbiy yordam bo'limiga EXO EEG apparati sotib olish uchun "ALFA MED" xususiy korxonasi bilan shartnoma tuzildi va olib kelindi.









uchun muassasaga 240 dona isitish radiyatori va 4 dona yangi isitish qozonlari “MUHAMMAD UMAR BULDING” xususiy korxonasi tomonidan oʻrnatilib, kuz-qish mavsumiga tayyor holatga keltirildi.

Oybek MURODOV,

Tuman tibbiyot birlashmasi boshligʻi

2019-12-11 17:07:51